

O'ZBEK MODERN SHE'RIYATINING POETIK XUSUSIYATLARI

Buriyeva Firuza Normurotovna,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi
feruzaburiyeva79@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi davr umumjahon va milliy adabiyotlarda tobora keng tus olayotgan modernistik oqimlarning paydo bo'lishi va o'zbek adabiyotiga kirib kelishi; uning adabiyotimizda o'nlab yillar mobaynida ustuvor bo'lgan sotsialistik realizm maqsad va manfaatlariga qarama-qarshi holda yuzaga kelgan insoniyat ruhi va ko'ngil mayllari daxlsizligiga asoslanuvchi tamoyillari, ifoda tarzi, adabiy-estetik qiyofasi xususida so'z yuritiladi. Fikrlarni dalillash va tahlil uchun Fitrat, Cho'lpon, Rauf Parfi, Abduvali Qutbiddin va Faxriyor kabi o'zbek shoirlari ijodiga murojaat qilinadi.

Kalit so'zlar. Sotsialistik realizm, modernizm, postmodernizm, simvolizm, adabiy an'ana, novatorlik, avangardlik, adabiy uslub, verlibr, kubizm.

POETIC FEATURES OF MODERN UZBEKISTAN POETRY

Buriyeva Firuza Normurotovna,
doctor of philosophy in philological sciences (PhD),
teacher of the Uzbek-Finnish pedagogical institute

Annotation. This article discusses the emergence of modernist trends, which are becoming increasingly widespread in world and national literature today, and their entry into Uzbek literature; its principles, style of expression, and literary and aesthetic appearance based on the inviolability of the human spirit and inclinations, which have emerged in opposition to the goals and interests of socialist realism, which has prevailed in our national literature for decades. To substantiate and analyze the ideas, the work of such Uzbek poets as Fitrat, Cholpon, Rauf Parfi, Abduvali Qutbiddin and Fakhriyor is used.

Keywords. Socialist realism, modernism, postmodernism, symbolism, literary tradition, innovation, avant-garde, literary style, verlibre, cubism.

ПОЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УЗБЕКСКОЙ МОДЕРН ПОЭЗИИ

Буриева Фируза Нормуротовна,
доктор философии (PhD) по филологии,
преподаватель Узбекско - Финского педагогического института

Аннотация. В статье рассматривается возникновение модернистских течений, которые сегодня получают все большее распространение в мировой и отечественной литературе, и их проникновение в узбекскую литературу; Рассматриваются его принципы, стиль выражения, литературно-эстетический облик, в основе которых лежит неприкосновенность человеческого духа и желаний, возникших в противовес целям и интересам социалистического реализма, на протяжении десятилетий господствовавшего в нашей национальной литературе. Для обоснования и анализа идей были привлечены произведения таких узбекских поэтов, как Фитрат, Чулпон, Рауф Парфи, Абдували Кутбиддин, Фахриёр.

Ключевые слова. Социалистический реализм, модернизм, постмодернизм, символизм, литературная традиция, новаторство, авангард, литературный стиль, верлибр, кубизм.

MODERN O'ZBEKISTAN SHIRININ SHIRSEL OZELLIKLARI

Buriyeva Firuza Normurotovna,
filoloji alanında felsefe doktoru (PhD),
Özbekistan - Finlandiya pedagoji enstitüsü'nde öğretmen

Özet. Bu makalede, günümüzde dünya ve ülke edebiyatında giderek yaygınlaşan modernist akımların ortaya çıkışı ve Özbek edebiyatına nüfuzu incelenmektedir; On yıllardır millî edebiyatımıza egemen olan sosyalist gerçekçiliğin amaç ve çıkarlarına aykırı olarak ortaya çıkan, insan ruhunun ve arzularının dokunulmazlığı ilkesine dayanan ilkelerini, anlatım tarzını, edebî ve estetik görünümünü ele almaktadır. Fikirlerin temellendirilmesi ve tahlili için Fitrat, Çulpon, Rauf Parfi, Abduvali Kutbiddin ve Fakhriyor gibi Özbek şairlerinin eserlerine başvurulmuştur.

Anahtar kelimeler. Sosyalist gerçekçilik, modernizm, postmodernizm, sembolizm, edebi gelenek, yenilikçilik, avangart, edebi üslup, verlibre, kübizm.

Jahon tarix sahifalaridan irqalar, e'tiqodlar, turli madaniyatlarning o'zaro hamisha yetakchilik va ustunlikka intilib kelganligi bizga ma'lumdur. Bunday siyosiy-ijtimoiy ziddiyat va to'qnashuvlar o'z navbatida san'at va badiiy adabiyotda ham o'z aksini topmay qolmadi. Chunonchi, o'tgan asrda yer yuzi xalqlarining kapitalistik va sotsialistik qutblarga ajralib qolganligi sotsialistik realizm hamda modernizm yo'nalishlardagi asarlarni yuzaga keltirib, ularning poetikasi: g'oyaviy-mazmuni, ifoda-tasvirlari hamda kompozitsion tuzilishlarida yaqqol namoyon bo'lib turadi. Insoniyat tarixining bu ikki gigant siyosiy tuzumi san'at va adabiyotning badiiyat tamoyillariga ham o'z nuqtayi nazarlari bilan qaradilar, hatto ularni o'z qarichi bilan o'lchadilar. Bunday yondashuvlar dunyodagi eng nufuzli sovrin xalqaro Nobel mukofotining aksariyat kapitalistik davlat ijodkorlarining sazovor bo'lganligida ham ko'zga tashlanadi. XX asrda modern va postmodern uslubidagi sara asarlari uchun kapitalistik davlatlarning qariyb yuzga yaqin ijodkorlari mazkur mukofotga sazovor bo'lgani holda "Sobiq ittifoq yozuvchi-laridan atigi ikki adib – Mixail Sholoxovga (1965) "Tinch Don" va Boris Pasternakka (1958) "Doktor Jivago" romani uchun Nobel mukofoti loyihi ko'rilgan edi" [10.4].

Yevropa madaniyati va adabiyotida XX asrning boshlarida ommalasha boshlagan modernizmning o'zbek she'riyatida paydo bo'lishini adabiyotshunos olim U.Normatov Fitrat, Cho'lpon, Hamza, keyinchalik Oybek kabi shoirlar ijodiga bog'lab, talqin qiladi hamda "20-yillarda ular izidan borgan qator iste'dodli shoirlar she'riyati yaxlit holda bizda Ovropa yangi adabiyotiga hamohang simvolizm adabiy hodisa darajasiga ko'tarila boshlaganligini tasdiqlaydi"[5.238], deydi. Demak, Fitrat, Cho'lpon kabi ijodkorlar qismatining foje yakunlari sotsialik realizm va modernizmning to'qnashgan nuqtalarida yuz bergan deyilsa, yanglish bo'lmaydi. Negaki ular o'z she'riyati orqali erkin tafakkur, "qoliplarga sig'maydigan asov ruh"[5.239]ning shiddatkorligini hamda adabiy qarashlarida ham modernizmning ana'anaviy adabiy tamoyillarga asoslanuvchi, shuningdek, ma'lum darajada siyosatga xizmat qiluvchi sotsialistik realizm uslubidan afzalroq ekanligini isbot eta boshladilar. Xususan, Fitrat she'rni "manzum she'rlar (tizim she'rlar)" hamda "sochiq she'rlar (mansur she'rlar)"[11.65] ga ajratar ekan, o'zi esa she'rdagi sochiq(mansurlikni) ma'qullaydi: "Vazn bilan qofiyaning she'rg'a ta'siri yo'qdir, vazn va qofiyasi bo'lmag'an ko'p she'rlar bo'lg'ani kabi "she'r" bo'la olmag'an vaznli, qofiyali so'zlar ham ko'pdir. She'r yurak sezgilarini ko'rsatmakdir. Vazn va qofiya esa, so'zning bezagi (ziynati)dir. Yurakimizdagi sezgilarni to'g'ri bermakchi bo'lsoq qofiyasiz, vaznsiz bir she'r(sochim she'r) yoziladir".[11.66] Albatta, o'zbek adabiyotida yaratilgan sochma, erkin vaznli hamda oq she'rlarning barchasini ham modernizmga taqayverish to'g'ri bo'lmaydi, ammo yuqoridagi iqtibosdan Fitratning o'zigacha bo'lgan ana'anaviy she'riy mezonlariga qarshi o'laroq noan'anaviy, avangrad fikrlay boshlagani ko'zga tashlanadi.

Ko'rinadiki, modernizmning jahon adabiyotida paydo bo'lishi bilan uning o'zbek adabiyotiga kirib kelishi orasida ko'p ham uzoq vaqt mavjud emas. Ammo asr boshlarida ushbu

yo'nalishdagi ijodkorlarning ommaviy qatag'onga uchragani inson erki va ijodning daxlsizligi bilan bog'liq ushbu yo'nalishdani adabiyotimizda barqarorlashuvini o'nlab yillar mobaynida kechikishiga sabab bo'ldi. Faqatgina 60-yillar avlodi vakili Rauf Parfi ijodida avvalroq adabiyotshunoslar tomonidan ruhiyat tasviri sifatida, bugungi kunda modernizmga daxldor deya talqin etilayotgan ayrim alomatlari namoyon bo'la boshlagadan ko'rish mumkin. Chunonchi, shoirning "Sakina" she'riy to'plamiga so'zboshi yozarkan, adabiyotshunos olim N. Rahimjonov shoir individual uslubidagi hissiy tafakkur, timsolli realizm, jahon she'riyatiga mansub verlibr, xokku, sonet, tanka kabi shakllarga milliy ruhni olib kirganligi, "50-60-yillarida badiiy tafakkurda qotib qolgan andozalarni, stereotip fikrlash tarzini" dan farqli ravishda noan'naviy, ta'bir joiz bo'lsa, xos she'riyatini yaratganligini ta'kidlaydi.[6.5-50] Garchi olim tomonidan modernistik nuqtay nazar bilan tahlil va talqin etilmagan bo'lsa-da, shoir she'riyati misolida keltirilgan yuqoridagi alomatlarning aynan modernistik she'riyat vakillari ijodida ustuvor ekanligi ko'rinadi. Ammo o'zbek adabiyotida modernizmning adabiy uslub sifatida barqarorlashishi o'tgan asrning 90-yillariga to'g'ri keladi.

O'zbek modern she'riyati qiyofasi, asosan, Rauf Parfi, Abduvali Qutbiddin, Faxriyor, Bahrom Ro'zimuhammad, Go'zal Begim kabi shoirlar ijodi misolida namoyon bo'ladi. Ular she'riyatida tabiat va unda mavjud jamiki jonzodlarga xos xususiyatlardan ruhiy tashbehlar sifatida foydalanish, hissiy kechinmalar, kayfiyatlardagi evrilishlarni metamorfozalarda aks ettirilishi ko'zga tashlanadi. Dastlab Abduvali Qutbiddin she'riyatida ko'rina boshlagan "*Baliqlarga rozi, Zulukka rozi, Faqat duch kelmasin kaltakesakka*",[1.27] "*Balkim sen suyangan daraxt uchidan/ O'rmalab-o'rmalab kelguvchi qurtman*"[2.16] yoki "*Baliqning tishi-la tilimni tildim*"[2.6] kabi tabiat bilan bog'liq noodatiy ifodalar, novatorona tashbehlar keyinchalik modern uslubida ijod etayotgan ko'pgina shoirlar she'riyatida yetakchi tasvir usuliga aylana bordi. Ammo bu kabi noan'anaviyliklar tanqidchilikda ba'zan hayrat, hayrixohlik bilan qabul qilingan bo'lsa, ayrim hollarda keskin e'tirozlar va bahs-munozaralarga ham sabab bo'ldi. Xususan, taniqli adabiyotshunoslar Q.Yo'ldoshev va E.Ochilov orasida modern uslubidagi ayrim she'rlardagi "*Go'ridan turdi uzum*" (V.Fayzullo), "*Yurakni yer firoq – shilliqqurt, Anduh – ochko'z it*" (M.Turkoy), "*Arralab tashlading nomusing*" (S.Ashur), "*Ruhimning qatqaloq qa'riga botib*" (I.Otamurod), "*Baxtim o'pay desam peshonasi yo'q*", "*qorningda irigan gaplarni*" (F.Afro'z), "*Ilonlar nikohdan o'tar bu kecha*" (B.Eshpo'lat) kabi misralar ustida keskin bahs, ikki qutbli adabiy-estetik qarashlar to'qnashuvi yuzaga kelgan edi.[3.143-150] Jahon adabiyoti tarixidan ma'lumki, modern asarning noan'anaviy ifoda tarzi aksariyat hollarda adabiy jamoatchilikda e'tirozlar uyg'otib kelgan. Dastlab verlibr vazni asoschisi va nazariyotchisi bo'lgan amerikalik shoir Uolt Uitmen o'zining erkin she'rlardan iborat "*Maysalar qo'shig'i*" dastlabki to'plami nashr ettirganda ham "...o'z davri tanqidchilarining keskin e'tirozlariga sabab bo'ldi. O'sha davrning mashhur tanqidchisi Rufuz Grizuold bunaqa bema'ni kitob mamlakat aholisining badiiy didiga zarar keltiradi deb taqiqlab qo'yishni talab qildi. Barcha gazetalar to'plamning asosiy ifoda shakli bo'lgan verlibr vazni hamda ko'tarilgan g'oyalar, qarashlar va shoir ustidan mag'zava ag'darishni boshladi. Zamondoshlari uchun bu to'plam aljirashdan boshqa emasdi".[4.85] Verlibr o'zbek adabiyotida o'tgan asr boshlaridayoq Firtat, Cho'lpon kabi shoirlar asarlari orqali kirib kelgan bo'lib, uning bugungi modern she'riyatida asosiy vaznga aylanishiga novatorlik deb qarash mantiqan bo'lmasa-da, ularning ifoda tarzi yangi poetik izlanishlar orqali boyitilgani ko'zga tashlanadi. Chunonchi, Faxriyor ijodidagi erkin she'rlarning tajnis, takror, qarshilantirish kabi badiiy vositalar orqali o'ziga xos ohang, musiqiylik ifoda etganini ko'rish mumkin.

Qarshilantirish:

*Mendan shamol bo'lib ketmoq istaysan,
Men to'zon bo'lib
Ketadurman sen bilan birga*

*Maysa bo'lib og'ushimdan yulqinasan,
Qo'yib yubormayman men zamin bo'lib.*[9.21]

Mumtoz she'r san'atida lahn-garmoniya, vazn-ohanglilik hamda qofiya tizimi she'r uchun eng asosiy shart etib qo'yilgan, modernistik she'rlarda esa dastlabki qarashda an'anaviylikning inkor etilgani ko'zga tashlanadi. Ammo o'zbek modern she'riyatida shaklan bo'lmasa-da, mazmunan yoki turli badiiy vositalar orqali mumtoz she'riy an'analarga ergashish seziladi. Modern she'rlarning bu jihati haqida, jumladan, shoir va adabiyotshunos Matnazar Abdulhakim shunday yozadi: "Padar hamda farzandning o'xshashligini ular kiygan libos emas, balki libos ichidagi vujud hamda bu vujudagi ruh belgilagani kabi, she'riyatda ustoz va shogirdlik darajasini ma'naviy mushtarakliklar ifoda etadi" [7.4] Faxriyor she'rlarida mumtoz poetik vositalarning vazn va qofiyasiz modern uslubidagi she'rlarga ohang va pafos berishi ham shu tarkibdandir. Chunonchi, shoir ijodidagi "Kechinma", "Yolg'izlik", "Qora shu'la", "Gul atri", "keraksiz narsalar tabiiyligi"[9] kabi she'rlarida mavzu qaratilgan so'zning she'rda ko'p marotaba takror keltirilgani matniy g'alizlik, so'z qo'llashdagi o'rinsizlikni emas, balki to'liq bo'lmasa-da ritmni yuzaga keltiradi. Shuningdek, bu kabi she'rlarning noizchil tuzilishga ega bandlari tarkibida turli so'z va birikmalar ham ba'zan shunday vazifa bajaradi:

*xuddi ilon indan chiqmaganmiday
xuddi qulab tushmaganday boshingga osmon
xuddi yerga kirib ketmaganingday
ilon o'rniga [9.76]
Yoki
kuy bag'irni kesib o'tadi
kuy kesgan bag'ir
to'lmaydi
tunning quyuqligi ham
kuy kesgan joydan
to'kiladi shovullab [9.81]*

Ko'rib o'tganimizdek, keltirilgan misollarda *xuddi*; *kuy* va *bag'ir* so'zlari she'riy satrlarga poetik ohang, mumtoz nazm ruhini baxsh etib turibdi. Umuman olganda, shoirning an'anaviy badiiy vositalarga bu tarzda eksperimental yondashuvi uning boshqa she'rlarida ham ko'plab uchraydiki, ular tajnis, tarse, tardi aks kabi lafziy hamda talmeh, tashbeh, irsoli masal, tamsil, nido kabi ma'naviy mumtoz she'riy san'atlarda ham namoyon bo'lib, ularning badiiy vazifalari borasidagi ijodiy novatorliklarni aks ettiradi. Jumladan, Rauf Parfi ijodidagi bu kabi izlanishlar shoir ijodidagi mavjud janr-shakllarning shoir individual uslubiga moslanishi hamda poetik vositalarning no'anaviylikda ko'proq namoyon bo'lsa, Faxriyor ijodida o'zbek adabiyotida ilk bora modernning kubizm oqimidagi she'riy shakllar paydo bo'ldi.

Kubizm (fransuzcha: *cubisme*, kub so'zidan) – Yevropa tasviriy san'ati (ko'proq rang-tasvir)dagi modernistik oqim bo'lib, XX asrning birinchi choragida dastlab Fransiya paydo bo'lgan. Kubizm san'atning mavjud an'alaridan voz kechib, handasaviy shakllarni loyihalash vazifasini birinchi o'ringa qo'yadi. Uning jahon rassomchilikdagi yirik namoyandalari sifatida P.Pikasso, J.Brak, X.Gris, J.Gri tan olingan. Kubizm san'atida borliq-olamga tegishli bo'lgan barcha moddiy va ma'naviy tushunchalar geometrik hajm (kub, shar, silindr, konus)larning qorishiq majmui tarzida ifodalanadi [13].

Shoir Faxriyor ijodida ushbu oqimga mansublikni bildiruvchi alomatlar ega bir qancha ijod mahsullari mavjud bo'lib, ularning bir nechalari shoirning "Geometrik bahor" (O'ngarilgan tushlar) she'riy to'plamiga jamlangan. Joriy asrning dastlabki yillarida yaratilgan ushbu yaratilqlar nafaqat o'zbek, balki jahon she'riyatida yangi bir badiiy eksperiment sifatida yuzaga kelganligi bois, ular borasidagi bahs-munozarali fikrlar adabiy tanqidchilikda hamonki davom etib kelayotir. Xususan, yozuvchi va adabiyotshunos olim Nazar Eshonqul Faxriyorni "Geometrik shoir yoxud avlodning avangard ijodkori" deb ataydi. Shuningdek, adabiyotshunis S.Quronov zamonaviy she'riyatdagi shakliy izlanishlarni asosan Faxriyor ijodi misolida yoritadi hamda shoirning "Geometrik bahor" she'riga "adabiyotimiz uchun yangi hodisa" [12.47] deb baho beradi. Darhaqiqat, ijodkorning dastlab she'riy vositalari, tajnis, tazod, talmeh, metafora va tashbehlari

zamidida yashiringan dunyo va ruhiyatni shakllardagi ifoda etish istagi keyinchalik handasa, tasviriyl san'at va she'riyat uyg'unligini aks ettiruvchi ayrim she'riy namunalarda o'z aksini topdi. Shoir ijodida modernistik uslubga mansublikka bir qancha alomatlar zuhur topgandir. Jumladan, janrning yangicha nomlanishi: shoirning hajman yirikroq ekanligiga ko'ra doston deb atalishi mumkin bo'lgan "Geometrik bahor" she'riga "shakl simfoniyasi", "Havo manzaralari" she'riga esa "to'lqin va nigoh simmetriyasi" deb ilovalar keltiradi va ushbu ilovalar ayrim adabiyotshunoslar tomonidan janr nomi sifatida qayd etilayotir [14]. So'zlarning uslubga ko'ra tanlanmasligi: shoir she'rlarida ilmiy, publitsistik va so'zlashuv uslubiga mansub so'zlar qo'llanilaveradi. Ammo bu tarzda usul she'rlarning badiiyligiga putur yetkazmaydi, balki modern alomatlardan biri hisoblangan sovuqqon intuitsiyaga asoslangan ifoda tarzini yuzaga keltiradi. Shoir "*O'rgatilgan nafrat – beozor./ Zarar ko'rmas jamoat mulki/ Undan hatto, bandasi qolib./ Farishtalar olishar ulgi*" deganda, ikkinchi misraning publitsistik uslubga mansub so'zlardan tashkil topganligi o'quvchini mallollantirmaydi, balki o'zining poetik vazifasi bajaradi – har qanday jamiyatning ikkiyuzlamachi va bir-biridan nafratlanadigan kishilardan iborat ekanligiga ishora etuvchi kinoyaviyligini namoyon etadi. Shuningdek, shoir she'rlarining mavzu doirasi, janr-shakl tarkibi, vazn va qofiya tizimi modernistik nuqtayi nazar bilan tahlil etilsa, maqsadga muvofiqdir. Shu bois ham bugunda yetakchi uslubga aylanib ulgurgan modernizm va o'zbek modern she'riyat haqida so'z yuritilganda aksariyat hollarda Faxriyor ijodi tadqiqot obyekti sifatida olinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдували Қутбиддин. Бор. – Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – 320 б.
2. Абдували Қутбиддин. Хаёл кечаси, Тошкент, "Ёзувчи" нашриёти, 1994 й. – 28 б.
3. Ёўлдошев Қ. Ёниқ сўз. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2006, – 402 б.
4. Назар Эшонкул. Мендан «мен»гача: адабий-танқидий мақолалар тўплами. – Т. Akademnashr, 2014. – Б.85.
5. Норматов У ва б. Ижод сеҳри. –Тошкент;-Шарқ, 2007. – 352 б.
6. Рауф Парфи, Сакина. Шеърлар. – Тошкент: «Muharrir» нашриёти. 2013. –376 б.
7. Рўзимухаммад Баҳром. Икки нур. – Урганч: "Хоразм" таҳририят-нашр бўлими, 1994. – 80 бет.
8. Фаҳриёр. Аёлғу. –Тошкент: Шарқ, 2000, -256 б.
9. Фаҳриёр. Геометрик баҳор(Ўнгаришган тушлар). Шеърлар. – Тошкент, "Маънавият",2004. – 192 б.
10. Холбеков М. XX аср модерн адабиёти манзаралари.Тошкент, "Мумтоз сўз" 2014 йил. – 388 б.
11. Шарқ мумтоз поэтикаси манбалари. Ҳамидулла Болтабоев талқинларида. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. Тошкент: 2008. – 427 б.
12. Куронов С. Ифода ва ифодавийлик. – Тошкент, "Akademnashr", 2013. – 88 б.
13. Nasirov, A. N. (2020). Artistic chronotope interpretation in Odil Yakubov's novels. *Academicia: An International multidisciplinary Research journal* ISSN222-49-7137. *Impact Faktor SJIF*, 7, 498-501.
14. Buriyeva, F., & Narzulloyeva, P. (2024). Muhammad Ali she'riyatida tarixning poetik talqini. *Analytical Journal of Education and Development*, 4(12), 164-167.
15. Buriyeva, F. (2024). The gradual development of literary tradition and innovation in poetry (From the Post-1960s Period). *American Journal of Philological Sciences*, 4(11), 86-89.
16. Buriyeva, F. (2024). Zamonaviy She'riyatda Diniy-Tasavvufiy Mavzu Va Timsollar An'anaviyligi. *Miasto Przyszłości*, 53, 1347-1350.
17. Buriyeva, F. (2024). Faxriyor ijodiy olami: individual uslub va poetik mahoratning shakllanish tadriji. *News of the NUUz*, 1(1.6. 1), 303-305.
18. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kubizm>. 09.10.2024.
19. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/faxriyor-shehlari-haqida.html>. 08.10.2013